



BARQAROR TURIZM: ILMIY YONDASHUVLAR TALQINI

Rahimova Nilufar Aminovna -
Toshkent shahridagi Xalqaro Westminster
Universiteti doktoranti
Raximov Zarrux Aminovich -
Toshkent shahridagi Xalqaro Westminster
Universiteti o'qituvchisi

https://doi.org/10.55439/ECED/vol23_iss5/a56

Annotasiya. Sanoat tarmoqlarining rivojlanishi ekologik muammolarning keskin oshib ketishiga sabab bo'ldi. Natijada XX asrning oxirgi o'n yilligida barqaror rivojlanish konsepsiyasi olimlar tomonidan ishlab chiqildi. Ushbu konsepsiyaning asosiy maqsadi iqtisodiy farovonlikka tabiiy resurslarni asrab-avaylagan holda hamda ijtimoiy to'qnashuvlarsiz erishishni nazarda tutadi. Turizm sanoati boshqa sanoat tarmoqlariga nisbatan resurs tejamkor tarmoq sifatida qaralgan bo'lsada, bugungi kunda turizm industiyasining ekologik ta'siri yaqqol ko'zga tashlanmoqda. Aynan shu sababli ko'pgina olimlar tomonidan turizmni ekologik, ijtimoiy zarar keltirmagan holda iqtisodiy foyda olib kelishi kerak deb hisoblashmoqda. Ularning tadqiqotlari natijasida fanga "barqaror turizm" atamasi kiritildi. Ushbu maqolada "barqaror turizm" so'zining paydo bo'lishidan boshlab turli mamalakat olimlarining barqaror turizmga berilgan ilmiy yondashuvlari tahlil qilingan hamda muallif tomonidan barqaror turizm atamasiga mualliflik ta'rifi berilgan.

Kalit so'zlar: barqaror turizm, barqaror rivojlanish konsepsiyasi, ekologik omil, ekotizim, biologik xilma-xillik, salbiy ta'sirlar, davlat boshqaruvi, taraqqiyot omili, barqarorlik elementlari.

УСТОЙЧИВЫЙ ТУРИЗМ: ИНТЕРПРЕТАЦИЯ НАУЧНЫХ ПОДХОДОВ

Рахимова Нилуфар Аминовна -
Докторант Вестминстерского международного
университета в городе Ташкенте
Рахимов Заррух Аминович -
Преподаватель в Вестминстерском международном
университете в городе Ташкенте

Аннотация. Развитие промышленности привело к резкому увеличению экологических проблем. В результате в последнее десятилетие XX века учеными разработана концепция устойчивого развития. Основной целью этой концепции является достижение экономического процветания при сохранении природных ресурсов и без социальных конфликтов. Хотя индустрия туризма является ресурсосберегающей отраслью по сравнению с другими отраслями, сегодня отчетливо видно воздействие индустрии туризма на окружающую среду. Именно поэтому многие ученые считают, что туризм должен приносить экономическую выгоду, не нанося вреда окружающей среде и обществу. В результате их исследований в науку введен термин «устойчивый туризм». В данной статье анализируются научные подходы ученых разных стран к научному устойчивому туризму с момента появления слова «устойчивый туризм» и автор дал авторское определение термина устойчивый туризм.

Ключевые слова: устойчивый туризм, концепция устойчивого развития, экологический фактор, экосистема, биоразнообразии, негативные воздействия, государственное управление, фактор развития, элементы устойчивости.

SUSTAINABLE TOURISM: AN INTERPRETATION OF SCIENTIFIC APPROACHES

Rahimova Nilufar Aminovna -
PhD student of Westminster International
University in Tashkent
Rakhimov Zarruh Aminovich -
Assistant teacher at Westminster
International University in Tashkent

Abstract. The development of industries has led to a sharp increase in environmental problems. As a result, in the last decade of the twentieth century, the concept of sustainable development was developed by scientists. The main goal of this concept is to achieve economic prosperity while preserving natural resources without social conflicts. Although the tourism industry is considered to be a resource-saving industry compared to other industries, today the environmental impact of the tourism industry is clearly visible. That is why many scientists believe that tourism should bring economic benefits without harming the environment and society. As a result of their research, the term "sustainable tourism" was introduced into science. This article analyzes the scientific approaches given by scientists from different countries to scientific sustainable tourism since the emergence of the word "sustainable tourism" and the author gave an author's definition of the term sustainable tourism.

Key words: sustainable tourism, concept of sustainable development, ecological factor, ecosystem, biodiversity, negative impacts, public administration, development factor, elements of sustainability.

Kirish. Bugungi kunda turizm dunyoning eng yirik va tez sur'atlarda rivojlanayotgan sohalaridan biri bo'lib, mamlakatlar va hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini tezlashtirishda muhim o'rin tutmoqda. 2019-yilda dunyo bo'ylab sayyoramiz aholisining 1,4 milliardga yaqini sayohat qilgan[1]. Xalqaro turizm 2020-yilgacha tez sur'atlarda o'sib bordi, chunki barcha mamlakat hukumatlari tomonidan turizm sohasi tez va sezilarli daromad manbai ekanligini anglagan holda, xalqaro sayyohlarni ko'proq jalb qilish va turizmdan keladigan daromadni oshirish uchun soha resurslarini ishlab chiqish hamda sohani boshqarishga ko'proq ahamiyat berildi [2]. Biroq turizm har qanday iqtisodiy soha kabi davlatlarga nafaqat iqtisodiy foyda keltiradi, balki energiyaning haddan tashqari iste'moli va atrof-muhitga salbiy ta'sir ko'rsatishi, jumladan, iqlim o'zgarishi kabi jiddiy muammolarni keltirib chiqaradi. Shuningdek, turizm va sayohatlarning kengayishi tufayli tabiiy resurslari isrof qilinmoqda, sayyohlik yo'nalishlari ortiqcha sayyohlik oqimidan aziyat chekmoqda va mahalliy aholining hayot sifatiga ham salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Turizmning salbiy oqibatlarini kamaytirish maqsadida Birlashgan Millatlar Tashkilotining Jahon sayyohlik tashkiloti (UNWTO) 2017-yilni "Barqaror turizm yili" deb e'lon qildi [3] va butun dunyo aholisini barqaror turizm tamoyillariga amal qilgan holda sayohat qilishga va mahalliy hamjamiyatlarga murojaat qilishga taklif qildi.

Jamiyatning ekologik, iqtisodiy va ijtimoiy maqsadlari o'rtasida murosallarni izlash bilan birga turizmni maqsadli va barqaror rejalashtirish va rivojlantirish katta ahamiyatga ega. Barqaror turizmni rivojlantirish boshqaruvi turistlar ehtiyojlarini yuqori darajada qondirishni saqlab turishi, iste'molchilar uchun muhim tajribani ta'minlashi, ularning barqarorlik masalalari bo'yicha ongini oshirishi hamda ular o'rtasida barqaror turizm amaliyotini targ'ib qilishi kerak.

Adabiyotlar tahlili. Barqaror turizm o'tgan asrning oxirgi o'n yilligida ko'pgina tadqiqotchilar va olimlar tomonidan chuqur o'rganila boshlandi. Natijada ushbu atama ilmiy kategoriya sifatida fanga kiritilishi hamda turli tahliliy fikrlar bilan birga ilmiy ta'riflar berilishiga asos bo'ldi.

"Barqaror turizm" terminiga Barqaror rivojlantirish konsepsiyasi doirasida, turizm sohasida faoliyat olib borgan turli olimlar tomonidan turli xil ta'riflar berilgan. W.Butler barqaror turizmni "bu hududda o'z hayotiyligini noma'lum vaqt davomida saqlab turishga qodir bo'lgan turizm shakli" deb ta'riflaydi[4].

Ko'pincha turizm sohasi asosida barqaror rivojlanish talqinlari iqtisodiyot va atrof-muhit o'rtasidagi munosabatlarga qaratilgan. Masalan, R.Xarris va N.Leyper: "Barqaror rivojlanishni hozirgi avlod meros qilib olgan sifat va miqdordan kam bo'lma-

gan tabiiy resurslarni kelajak avlodlarga yetkazishni maqsad qilgan ekologik boshqaruv sharoitida boshqariladigan iqtisodiy o'sishni qamrab olishdir", - deb izohlashadi [5]. Asosiy urg'u iqtisodiy o'sishni tabiatga zarar yetkazmagan holdagi o'sish bilan bog'lagan holda, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va kelajak avlodga ham yetarli darajada qoldirish ta'kidlangan.

S.Eber barqaror turizmni quyidagicha talqin qiladi: "Barqaror turizm bir-biri bilan bog'liq infratuzilmalarki, joriy mavjud imkoniyatlar doirasida va kelajakda qayta jonlanish imkoniyatiga ega tabiiy resurslar bilan amal qiluvchi; turizmga jamiyat va insonlar hayot tarzining hissasini tan oluvchi; va shu bilan birga, sayyohlik manzillarida yashovchi insonlarning iqtisodiy manfaatdorligini ta'minlovchi turizmdir" [6]. Bunda tadqiqotchi, turizmning barqarorligi, albatta, mahalliy aholining manfaatlarini himoya qilgan holda, kelajakda tarmoqning rivojlanishi uchun yetarli resurslarning mavjud bo'lishi bilan tavsiflanganligini ta'kidlaydi.

R.Payning barqaror turizmga bergan talqini: "Turizm insonlar uchun ochiq bo'lgan iqtisodiy faoliyat tuzilishiga salbiy ta'sir etmasligi va imkoniyatlar ko'lamini ko'paytirishi shart. Shu bilan birga, turizm ekologik jamiyat chegaralarini hurmat qilishi kerak" [7].

Tadqiqotchi G.Vol ushbu atamaga tanqidiy yondashib, o'z fikrini quyidagicha bayon etgan: "Barqaror turizm atamasi turizm sohasining turli jabhalarida turli mazmunda foydalanila boshlandi, bu so'z ideologiyaning asosiy formasiga, siyosiy balandparvoz terminga aylandi" [8].

H.Kokosis barqarorlik konsepsiyasida turizmni eng kamida to'rtta yo'nalish bo'yicha talqin qilish mumkin deb hisoblaydi: "Tarmoq nuqtayi nazaridan, iqtisodiy barqaror turizm; ekologiya nuqtayi nazaridan, ekologik barqaror turizmning zarurligi; turizmning uzoq muddatli istiqbolli rivojlanishi, destinatsiyalarning raqobatbardoshligining ahamiyati; turizmni barcha muhitlarda barqaror rivojlantirish strategiyasining bir bo'lgi sifatida qarash" [9].

R.C.Bakley barqaror turizmni atrof-muhitga ta'sirini kamaytirish uchun amaliy va faol loyihalar, muhandislik va boshqaruv bilan bog'liq har qanday miqyosdagi turizm deb ta'riflaydi [10].

Maqolaning ilmiy jozibadorligini oshirish maqsadida P.Vight, A.Fyall va B.Garrodd, R.Repetto, L.Butovskiy, M.Belova, A.Ye.Zlotnikova va E.V. Lebedev kabi olimlarning ilmiy maqolalaridagi izlanishlari natijasi, fikr va mulohazalari, shu bilan birga, xalqaro tashkilotlar: Birlashgan Millatlar Tashkiloti, Jahon turizm tashkiloti kabilarning barqaror turizmga oid hujjatlari to'plami, statistik yilnomalari va konferensiyalari to'plamidan foydalanildi.

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu maqolani yoritishda analiz, sintez va iqtisodiy tahlil usullari-

dan foydalanilgan. Mushohada qilish yordamida ilmiy xulosalarga kelindi.

Tahlil va natijalar muhokamasi. Soʻnggi oʻt-tiz yil ichida barqarorlik turizm sanoatining yetakchi kuchi sifatida paydo boʻldi, davlat siyosati uchun yangi yoʻnalishlar taklif qildi va barqaror turizm konsepsiyasini yaratdi. Turizm rivojlanishining yangi tendensiyalari jahonda koʻproq barqaror rivojlanish konsepsiyasi bilan bogʻliq boʻlib, turizm sohasining barqarorligi bilan bogʻliq savollarga tobora chuqurroq eʼtibor qaratila boshlandi.

1980-yillarda “turizmning baqaror rivojlanishi” konsepsiyasi paydo boʻladi. Aniqrogʻi, bu tushuncha dastavval Butunjahon Tabiatni Muhofaza Qilish Xalqaro Ittifoqi (International Union for Conservation of Nature) tomonidan “barqaror rivojlanish” termini shaklida fanga kiritilgan. Keyinchalik esa 1987-yilda boʻlib oʻtgan Gro Xarlen Brundlend (BMTning raisi)ning hisobotida alohida eʼtibor qaratilganligidan soʻng terminiga asosiy siyosiy kuch berildi. Brundlendning fikriga koʻra, “Barqaror rivojlanish hozirgi avlodning talabini qondirish, keyingi avlod ehtiyojini qondirishga xavf tugʻdirmaydigan darajada qondirilishini bildiradi” [11].

Yaʼni resurslar nafaqat hozirgi avlodning ehtiyoji uchun, balki kelajak avlodning talabini qondirishi va rivojlanishi uchun ham yetarli boʻlishi kerak degan fikrni ilgari surgan. Shundan soʻng sohani oʻrganuvchi olimlar, jurnalistlar va butunjahon hamjamiyat tashkilotlari uchun eng muhim masalalardan biri – “turizmning salbiy taʼsirlari” masalasi, yani turizmning rivojlanishi natijasida kelib chiqqan ekologik muammolar boʻldi.

Yuqoridagi barqarorlik tasnifiga turli olimlar tomonidan turlicha talqin berilgan. Birinchilardan boʻlib R.Repetto quyidagicha talqin etgan: “Barqaror rivojlanish uzoq muddatli boyluk va farovonlikni oshirib, barcha aktivlar, tabiiy resurslar va inson resurslari hamda “moliyaviy va jismoniy aktivlarni” boshqaradigan rivojlanish strategiyasidir. Barqaror rivojlanishning maqsadi ishlab chiqarish bazasini, shu jumladan, tabiiy resurslarni ayovsiz ishlatish orqali mavjud hayot darajasini saqlab turadigan va kelajak avlodlarga biznikidan koʻra yomonroq va katta xavf tugʻdiradigan siyosat va amaliyotni butkul rad etishdir [12].

1992-yilda Rio-de-Janeyroda boʻlib oʻtgan Birlashgan Millatlar Tashkilotining Atrof-muhit va Taraqqiyot boʻyicha konferensiyasida “barqaror rivojlanish” atamasining mazmuni yanada mustahkamlanib, shundan soʻng barqarorlik barcha hududiy darajalarda turizm siyosatining doimiy masalasi boʻlib kelmoqda. Muammoga eʼtibor faqatgina turizmni barqaror rivojlantirishdan iborat boʻlmay, balki global miqyosdagi, ham ijtimoiy, ham iqtisodiy muvozanatni qamrab oluvchi konsepsiya tomon rivojlana boshlandi.

“Barqaror turizm” konsepsiyasi Jahon sayyohlik tashkiloti (JST) tomonidan Birlashgan Millatlar Tashkilotining barqaror rivojlanish jarayoni sharoitida ishlab chiqilgan boʻlib, Barqaror Turizm Konsepsiyasi “madaniy yaxlitlik, muhim ekologik jarayonlar, biologik xilma-xillik va hayotni qoʻllab-quvvatlash tizimlarini saqlab qolish bilan birga iqtisodiy, ijtimoiy va estetik ehtiyojlarni qondira oladigan tarzda barcha resurslarni boshqarishga olib boshish” demakdir [13].

Barqaror turizm deganda, zamonaviy turistlar hamda mahalliy aholining ehtiyojlarini qondiradigan va shu bilan birga, kelajak avlod uchun ham imkoniyatlar yetarli boʻladigan turizm tushuniladi. Barqaror turizmning zamirida mavjud tabiiy, milliy va tarixiy resurslar potensialidan samarali foydalanib, turizmning jamiyat va atrof-muhit unsurlariga zarar yetkazmasdan, uzoq muddatli rivojlanishi uchun imkoniyat yaratish hisoblanadi. Bunda eng oliy maqsad qilib, ekologik musaffolik va tabiiy resurslarni borligicha kelajak avlodga qoldirgan holda yuqori ijtimoiy-iqtisodiy oʻsishga erishish hisoblanadi. Ushbu konsepsiya turizmni rivojlantirishning global tendensiyalariga mos keladi va yangi turizm brendi asosida barqarorlikni targʻib etadi.

1997-yilda Birlashgan Millatlar Tashkilotining yalpi majlisida oʻzining “XXI asr kun tartibi” dasturining besh yillik ijrosini koʻrib chiqadigan maxsus sessiyasi tartibida “barqaror turizm boʻyicha harakatlarga yoʻnaltirilgan xalqaro dasturni ishlab chiqish” zarurligi taʼkidlandi[14]. Bu harakatlarining davomi 1999-yil Nyu-York shahrida boʻlib oʻtgan Birlashgan Millatlar Tashkilotining Barqaror rivojlanish boʻyicha komissiyasining (United Nations Commission on Sustainable Development) yillik yettinchi sessiyasida *turizm iqtisodiy sektor* sifatida qaralib, mavzu boʻyicha koʻp tomonlama muloqot oʻtkazilganidan keyin barqaror turizmni rivojlantirish boʻyicha xalqaro ishchi dasturi qabul qilindi[15]. Barqaror turizm xalqaro ishchi dasturini amalga oshirishda eng asosiy harakatlardan biri boʻlib, “Biologik xilma-xillik toʻgʻrisidagi” konvensiya asosiga barqaror turizm xalqaro koʻrsatmalarining ishlab chiqilishi boʻldi. Xalqaro koʻrsatmalar loyihasida “turizm barqaror boʻlishi uchun har bir ekotizim va yoʻnalishning imkoniyatlari va chegaralari doirasida boshqarilishi kerakligi taʼkidlandi”[16].

Shu bilan birga, Birlashgan Millatlar Tashkilotining Barqaror rivojlanish boʻyicha komissiyasi Jahon turizm tashkilotiga oldingi “ikki yil” orasida turizm sohasi bilan birga maslahatlashgan holda ishlab chiqilgan global axloq kodeksini yanada rivojlantirish taklifini berdi. 1999-yil oxirida esa “Turizm uchun global etika kodeksi” Jahon turizm tashkiloti (JTT) tomonidan turizmni masʼuliyatli va barqaror rivojlantirish uchun maʼlumotlar bazasi sifatida belgilandi[17]. Unda hukumatlar, turoperatorlar, ishlab chiqaruvchilar, sayyohlik agentlari,

ishchilar, shuningdek, mezbonlar va sayyohlarning o'zlari uchun asosiy qoidalar bayon etilgan to'qqizta maqola mavjud bo'lib, o'ninchi maqolada esa dunyoning har bir mintaqasi va manfaatdor tomonlarning har bir guruhi vakillaridan tashkil topgan Butunjahon turizm etika qo'mitasini yaratish orqali kelishuv mexanizmi taklif qilindi. Shundan so'ng 2001-yilda "Turizmning global etika kodeksi" Birlashgan Millatlar Tashkilotining Bosh Assambleyasi tomonidan qabul qilindi [18]. Mazkur hujjatning amalga oshirish rejasini 26-avgustdan 4-sentabrgacha Yoxansburgda (Janubiy Afrika) bo'lib o'tgan oliy darajadagi Barqaror rivojlanish bo'yicha Butunjahon Sammitida qabul qilingan bo'lib, unda rivojlanishning keyingi chora-tadbirlari belgilab berildi: "sayyohlarni qabul qiluvchi mamlakatlarning madaniy va ekologik yaxlitligini saqlab qolish hamda atrof-muhitga, sezgir hududlar va tabiiy merosni muhofaza qilishni kuchaytirish bilan birga turizm resurslaridan manfaatli foydalanish" ko'zda tutilgan [19].

Aynan shu kabi xalqaro harakatlar natijalari ko'rsatib turibdiki, Barqaror rivojlanish bo'yicha Butunjahon Sammiti rejasini amalga oshirish davlatlarni yanada barqaror rivojlanish yo'lida ilg'or qadamlar qo'yishga undashi kerak [20]. Biroq Barqaror rivojlanish bo'yicha Butunjahon Sammiti amalga oshirish rejasida keltirilgan barqaror turizm maqsadlariga erishish uchun tizimli harakatlar va milliy hamda xalqaro darajada yetarli resurslar (iqtisodiy, ijtimoiy, intellektual) mavjud bo'lishi kerakligi ham ta'kidlandi [21].

P.Vight "barqaror turizm" atamasi va "barqaror rivojlanish bilan bog'liq bo'lgan turizm" atamalari farq qilishini, "barqaror turizm barqaror rivojlanish konsepsiyasining ekvivalenti emas, faqat bir qismidir" deb ta'kidlaydi. Uning fikricha, birinchisi shunchaki vaqt o'tishi bilan mavjud bo'lgan turizmni anglatadi, ikkinchisi esa quyidagilarni nazarda tutishi kerak: vaqt o'tishi bilan tabiati, ko'lami, joylashuvi va taraqqiyoti mos va barqaror bo'lishi uchun

ishlab chiqilgan va atrof-muhitning boshqa faoliyat va jarayonlarni qo'llab-quvvatlash qobiliyati buzilmagan turizm [22], chunki barqarorlikda turistik yo'naltirilgan yondashuv sifatida boshqa resurslardan foydalanish faoliyatidan turizmni ajratib bo'lmaydi.

A.Fyall va B.Garrod barqaror turizm konsepsiyasi sifatida hanuzgacha bir xil umumiy tushunchaga va ishlatilish ta'rifiga qarshi turishini ta'kidladilar. "Barqaror turizm" atamasi ko'pincha turizmni rivojlantirish qanday ketishini emas, balki turizm amaliyotining umumiy tavsifi sifatida ishlatilayotganligini aytib o'tadi [23].

L.Butovskiy barqaror turizmning qisqa muddatli modelini o'rganib, unda sayyohlarning ehtiyojlari va mahalliy aholi ehtiyojlari o'rtasidagi muvozanat holatiga erishish, shu bilan birga, destinatsiyalarning tabiiy va ijtimoiy-madaniy muhit jozibadorligini saqlab qolishga qaratish lozimligi haqida fikr bildiradi [24].


E.G.Kiyakbayeva turizmning barqaror rivojlanihi hozirgi va kelajak avlodlar uchun ijtimoiy, iqtisodiy, ekologik va madaniy maqsadlarni uyg'unlashtirishga asoslangan uzoq muddatli rivojlanishi deb tushunadi [25].

M.Belova: "Barqaror turizm eng yosh konsepsiyalardan biri bo'lib, ekologik xavfsizlikka yo'naltirilgan turizmdir", - deb tarif beradi [26].

A.Ye.Zlotnikova va E.V.Lebedev: "Turizm faoliyati ekologik, ijtimoiy-madaniy va iqtisodiy omillar ta'sirlari umumiy ijobiy muvozanatda bo'lsa, barqaror deb hisoblanishi mumkin" [27], - deb fikr bildirishadi.

Umuman olganda, barqaror turizmga berilgan ta'riflarning asosiy qismida tadqiqotlar tomonidan ekologik barqarorlik, ijtimoiy zararsizlik hamda iqtisodiy foydani, ya'ni uch tomonlama barqarorlik doirasida sohani rivojlantirish muhimligi bayon etilgan.

Barqaror turizm bo'yicha ilmiy maqolalar soni (yiliga).



1-rasm. 2010 va 2020-yillar oralig'ida chop etilgan ilmiy maqolalar [28]

Barqaror turizm atamasining keng qo'llanila boshlangani ko'pgina ilmiy jurnallarda ushbu mavzu doirasida maqolalarning keng chop etila boshlanishi bilan ham tavsiflanadi. Tadqiqotchilar tomonidan akademik jurnallarda chop etilgan ilmiy maqolalarni ko'paytirish barqaror turizm atamasining keng aholi qatlamlarini qamrab olish, har bir shaxsning ongida barqarorlik tamoyillarini yetkazish maqsad qilib olingan, deb hisoblaymiz. Barqaror turizm atamasini ilmiy maqolalarda izlash bo'yicha ham bir nechta olimlar ilmiy tadqiqotlar olib borishgan. Misol uchun, Michelle Perello boshchiligidagi bir guruh olimlar tadqiqotlari ma'lumotlar bazasi 2010 va 2020-yillar oralig'ida chop etilgan 74 ta maqolani tahlil qilishga bag'ishlangan. Quyida keltirilgan 1-rasmda ushbu guruh olimlar tadqiqotlari natijasiga ko'ra so'nggi to'rt yil ichida barqaror turizm tendensiya sezilarli darajada oshganligini ko'rsatmoqda.

Ana León-Gómez boshchiligidagi olimlar guruhi ham barqaror turizm bilan bog'liq so'zlarning ishlatilishini tadqiq etishdi. Ular ma'lumotlar to'plash uchun Web of science ma'lumotlar bazasida "Barqaror turizm", "Turizmni rivojlantirish" va "Iqtisodiy o'sish" qidiruv so'zlaridan foydalanishdi. Boshlang'ich qidiruv urinishlari natijasida jami 14 993 ta hujjat topilgan. Ushbu topilgan hujjatlar orasidan ma'lum yo'nalishga oid (biznes iqtisodiyoti, ijtimoiy ish, ijtimoiy fanlar, atrof-muhit fanlari ekologiya, sotsiologiya, kompyuter fanlari, muhandislik) hamda faqat ingliz tilidagi maqolalarni qaytadan qidirish natijasida 9549 ta hujjatga kamaydi. Keyingi boshqichda faqat "Barqaror turizm va turizmni rivojlantirish hamda iqtisodiy o'sish" kalit so'zi ishlatildi va qidiruv natijasiga ko'ra Web of science ma'lumotlar bazasida 668 ta maqola tanlandi [29].

Jadval

Qidiruv natijalari aniqlangandan keyin

	Qidiruv kalit so'zlari	Qidiruv natijalari (hujjatlar soni)
1.	Barqaror turizm va turizmni rivojlantirish	6424
2.	Barqaror turizm va iqtisodiy o'sish	774
3.	Turizmni rivojlantirish va iqtisodiy o'sish	2351
4.	Barqaror turizm va turizmni rivojlantirish hamda iqtisodiy o'sish	668
	Jami:	9549

Bunday tadqiqotlar ko'plab olimlar tomonidan o'tkazilib kelinmoqda, ya'ni asosiy maqsad "barqaror turizm" atamasining qay darajada keng qo'llanilayotganligi hamda tadqiqot negizida esa ushbu konsepsiyaning keng joriy qilinishi asosida keng ommaga sayohat qilishning barqaror turini tanlash afzalliklari haqida ma'lumot berishdan iborat, deb hisoblaymiz.

Xulosa va takliflar. Demak, turizmning iqtisodiy sektor sifatida tez rivojlanishini inobatga olgan holda "barqaror turizm sohasi uchun qulay muhit va vaziyatni yaratishi to'g'risida g'amxo'rlik qilishi kerak" degan fikr bir nechta olimlar tomonidan ilgari surilgan bo'lsa, boshqa bir guruh olimlar, "barqaror turizmni 90-yillarning boshlarida barqaror rivojlanishning umumiy asoslarini / konsepsiyasini qamrab oladigan barqaror turizm konsepsiyasi sifatida rivojlanib kelgan yaxlit konsepsiyaning bir qismiga aylantirishga harakat qilish kerak" deb undashgan.

Yuqorida bayon etilgan turli-tuman fikrlarning zamirida, albatta, iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik omillarning har biriga nisbatat xayrixohlik aks ettirilgan. Bizning fikrimizcha, barqaror turizmga berilgan olimlar va xalqaro tashkilotlarning ta'riflariga qo'shilgan holda, barqaror turizmga quyidagicha ta'rif bermoqchimiz: "barqaror turizm ijtimoiy g'amxurlik, iqtisodiy foyda hamda ekologik zararsizlik omillari teng ahamiyatligi natijasida shakllangan,

har qanday turizm shakliga taalluqli faoliyatning (jarayonning) intilishi kerak bo'lgan nuqtasidir". Ya'ni turizm sanoati barqaror hisoblanadi, qachonki sayohatchilar hamda turizm xizmatlarini taqdim etuvchilar tomonidan barqaror turizm elementlari doirasida faoliyat tashkil etilsa, atrof-muhit va mahalliy aholi yashash tarziga hurmat bilan birga iqtisodiy foyda keltirsa. Barqaror turizm turizmning alohida turi emas, balki har qanday turizm turi intilishi kerak bo'lgan holatdir.

Olingan tahlil natijalaridan, "barqaror turizm"ning amalda mavjud bo'lishi va rivojlanishi uchun, asosan, uchta omilning (iqtisodiy, ijtimoiy, atrof-muhit) bir-biriga bog'liq holda, shu bilan birga, o'zaro zarar yetkazmagan sharoitda rivojlana olish xususiyatlarining mavjud bo'lishi bilan tavsiflanadi. Barqaror turizm deganda, zamonaviy sayyohlarning va mahalliy aholining ehtiyojlarini parallel ravishda qondiradigan, shu bilan birga, kelajak avlodning imkoniyatlarini oshirish va ehtiyojlarini qondirish uchun yetarli bo'ladigan turizm tushuniladi. Ushbu konsepsiya turizmni rivojlantirishning xalqaro tendensiyalariga mos keladi, bu yangi turistik brendni, yani tabiiy komplekslarni asrashning yuqori darajasi bilan tavsiflanadi, bu esa barqaror rivojlanish konsepsiyasining ajralmas shartidir. Bundan turistik faoliyat turlarining barqaror bo'lishi, albatta, ekologik, ijtimoiy va iqtisodiy faoliyatlar

turlarining birgalikda ijobiy natijalarga erishishi, deb xulosa chiqarishimiz mumkin.

Turizmni barqaror rivojlantirish turizmning o'zini ham, tabiiy resurslar salohiyati, aholining milliy va tarixiy qadriyatlarini saqlab qolish uchun

ham uzoq muddatli shart-sharoitlar yaratilishiga asoslanadi. Bundan ko'zlangan maqsad ekologik musaffolikni, tabiiy resurslarni kelajak avlod uchun saqlagan holda yuqori ijtimoiy-iqtisodiy o'sishga erishishdir.

Manba va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. UNWTO. *International tourism highlights*. 2019 Edition, Madrid, Spain. Retrieved from <https://www.e-unwto.org/doi/pdf/10.18111/9789284421152>
2. Rahimova N.A. *Pandemiyaning turizm sanoatiga ta'siri tahlili*. // *Экономика и финансы (Узбекистан)*. 2021. № 9 (145). URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/pandemiyaning-turizm-industriyasiga-tasiri-tahlili> (дата обращения: 13.07.2022).
3. UNWTO. *2017 is the international year of sustainable tourism for development*. Retrieved from <http://www.unwto.org/archive/global/press-release/2017-01-03/2017-international-year-sustainable-tourism-development>
4. Багзиновский К.А. *Имитационные системы принятия экономических решений*. / К.А.Багзиновский. – М.: Наука, 1989. – 168 с.
5. Harris R. & Leiper N. *Sustainable tourism. An Australian perspective*. Chatswood, Australia: Butterworth-Heinemann, 1995.
6. Eber S. *Beyond the Green Horizon: A Discussion Paper on Principles for Sustainable Tourism*. Godalming, UK: Worldwide Fund for Nature, 1992.
7. Payne R. *Sustainable tourism: Suggested indicators and monitoring techniques*. In *Tourism and Sustainable Development: Monitoring, Planning, Managing*, ed. J.G.Nelson, R.W.Butler and G.Wall, Waterloo, Ontario: University of Waterloo. 1993. Pp. 249-54.
8. Wall G. *Is ecotourism sustainable?* *Environmental Management*. 1996.
9. Coccossis H. *Tourism and sustainability: Perspectives and implications*. Wallingford, Oxford: CAB International. 1996. Pp. 1-21.
10. Buckley R.C. *Tourism ecolabels*. *Annals of Tourism Research*, 2002. Pp. 183-208.
11. *Report of the World Commission on Environment and Development: Our Common Future*. <https://sustainabledevelopment.un.org/content/documents/5987our-common-future.pdf>
12. Repetto R., *World Enough and Time*. New Haven: Yale University Press, 1986.
13. *Sustainable development of tourism, Report of the Secretary-General (Document No. E/CN.17/2001/PC/21)*, New York, UN. 2001.
14. *Earth Summit +5-Programme for the Further Implementation of Agenda 21*, UN, New York, 1998.
15. *Tourism and sustainable development, Report of the Secretary-General UN, (Document No. E/CN.17/1999/5)*, UN. New York, 1999.
16. "Québec Declaration on Ecotourism", agreed at the World Ecotourism Summit and available at <http://www.unep.org/pc/tourism/ecotourism/wes.htm>. UNEP, 2002.
17. *Actions in assisting developing countries to implement Agenda 21 undertaken by the World Tourism Organization since 1992, (Document No. DESA/DSD/PC2/BP3)*, New York. UNWTO, 2001.
18. *GA resolution A/RES/56/212 of 21 December. 2001*.
19. *Report of the World Summit on Sustainable Development*. New York, UN 2002.
20. Haas P.M. "UN Conferences and constructive governance of the environment", *Global Governance* 8. 2002.
21. Butler R. *Tourism – an evolutionary approach*. In J.G.Nelson, R.W.Butler & G.Wall (Eds.), *Tourism and Sustainable Development: Monitoring, Planning, Management Waterloo, Canada: University of Waterloo*. 1993. Pp. 27-44.
22. Wight P. *Supporting the principles of sustainable development in tourism and ecotourism: Government's potential role*. *Current Issues in Tourism*, 2002. Pp. 222-254.
23. Fyall A., Garrod B. *Sustainable tourism: Towards a methodology for implementing the concept*. In M.J.Stabler (Ed.), *Tourism and sustainability. Principles to practice* Wallingford, UK: CAB International.1997. Pp. 51-68.
24. Butowski L. *Sustainable Tourism – A Model Approach. Visions for Global Tourism Industry – Creating and Sustaining Competitive Strategies*, Available at: <https://www.intechopen.com/books/visions-for-global-tourism-industry-creating-and-sustaining-competitive-strategies/sustainable-tourism-a-modeling-approach>
25. Kijakbaeva E.G. *Social'no-jekonomicheskie mehanizmy ustojchivogo razvitija turizma v regionah Rossii*. Diss. kand. geogr. nauk. [Socio-economic mechanisms of sustainable tourism development in the regions of Russia]. – M., 2015. – 147 p.
26. Белова М.В. *Оценка туристского потенциала региона [электронный ресурс]*. / М.В.Белова. – Краснодар, 2010. Режим доступа: www.kfrgteu.ru/admin/files/Belova_ocenka_tirust_pot.pdf
27. Злотникова А.Е., Лебедев Е.В. *Международные принципы устойчивого развития туризма (перспективы применения на региональном уровне)*. // *Сборник материалов V Всероссийской научно-практической конференции «Стратегия устойчивого развития регионов России»*. – Новосибирск: ЦРНС, 2011. С. 245-250.
28. *Boosting Sustainable Tourism Development and Capacity of Tourism SMEs through Transnational Cooperation and Knowledge Transfer*. Retrieved from <https://clustercollaboration.eu/open-calls/boosting-sustainable-tourism-development-and-capacity-tourism-smes-through>
29. León-Gómez, A.; Ruiz-Palomo, D.; Fernández-Gámez, M.A.; García-Revilla, M.R. *Sustainable Tourism Development and Economic Growth: Bibliometric Review and Analysis*. *Sustainability* 2021, 13, 2270. <https://doi.org/10.3390/su13042270>